

ALLAYOROV HAMDAM IRIS O'G'LI

**MILLIY ALOQA XIZMATLARI BOZORINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05. – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Allayorov Hamdam Iris o'g'li

Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....5

Аллаёров Хамдам Ирис угли

Совершенствование экономического механизма инновационного развития национального рынка услуг связи27

Allayorov Khamdam Iris ugli

Improving the economic mechanism of innovative development of the national market of communication services53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

ALLAYOROV HAMDAM IRIS O'G'LI

**MILLIY ALOQA XIZMATLARI BOZORINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05. – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt4016 raqami bilan ro'yhatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasining www.sies.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov To'liq Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Tuxliyev Iskandar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tursunov Sherzod Abdukodirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "____" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel./faks: (99866) 233-38-72, (99866) 231-12-53; ye-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "____" _____kuni tarqatildi.
(2025 yil "____" _____dagi №____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining raqamli va sun'iy texnologiyalarga asoslangan holda jadal rivojlanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda jahon taraqqiyotini belgilochi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. "Global raqamli iqtisodiyot yildan-yilga o'rtacha 15,5% o'sib, 2025-yilda uning hajmi 24 trillion AQSh dollariga yetishi, ya'ni jahon YaIMining 21% ini tashkil etishi kutilmoqda. Bunda, aloqa sohasining o'zni alohida ahamiyat kasb etib, ayniqsa internet va mobil aloqa xizmatlariga talab ortib bormoqda. Aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining YaIMdagi ulushi AQShda – 10,9%, Xitoyda – 10,0%, Hindistonda – 5,5 %ni tashkil etmoqda"¹. Bugungi kunda jahonda aloqa xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashtirish-raqamlashtirish sharoitida samarali rivojlanishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida innovatsion rivojlantirishning samarali yondashuv, vosita va mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor darajada qaratilmoqda. Bu borada raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining uslubiy asoslarini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholashning integral indikatorlarini yaratish, yangi avlod texnologiyalarining (Big Data, 5G, VR/AR, Cloud Computing, Artificial Intelligence, Blockchain) zamonaviy taraqqiyotdagi o'zini va ularni turli sohalarda tatbiq etishning samarali uslubiy yondashuvlarini asoslash, telekommunikatsiya infratuzilmasi bilan qamrab olishning samarali va tejamkor vositalarini yaratish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari transformatsiyasini jahon standartlari asosida amalga oshirish, ushbu texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini sezilarli darajada oshirish, faoliyatning sinergetik samaradorligini ta'minlash kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimidagi ishtirokni kamaytirish, "Elektron hukumat" tizimini kengaytirish, shuningdek davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmlarini joriy etish² ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu borada milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va

¹ <https://www.linkedin.com/pulse/2025-digital-economy>; <https://review.uz/post/uzbekistan>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони

kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3927-son "Raqamli ishonch" raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-maydagi 421-son "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish hisobidan aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 14-dekabrdagi PQ-4921-son "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lgan - "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aloqa xizmatlar bozori, uni innovatsion asosda rivojlantirish, aloqa xizmatlar bozorini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ulardan foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish va statistik tahlil qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keyingi yillarda mamlakatimiz va xorijlik olimlar hamda shu sohaning mutaxassis tadqiqotchilari tomonidan keng ko'lamli o'rganilmoqda.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini samarali rivojlantirishning ilmiy-metodologik masalalarida xorijlik olimlardan Don Tapskott, V.A. Vaypan, R.D.Colle, In Jans Servaes (Ed), A.Singhal, S.R.Melkote, U.Narula, Ed.Servaes, S.Rodriguez, Y.A.Golubiskaya, V.V.Vasilyev, T.D.Kuxovkova, V.O.Tixvinskiy, Y.Y.Volodina, T.D.Kuxovkova, B.Daniyel, A.Grinspen, V.B.Bulgak, M.A.Bixovski, Y.G.Kuxarenko, L.P.Goncharenko, M. Shayefer, N.G. Viktorova., F.G. Shuxov va boshqalar ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratganlar³.

MDH olimlaridan: A.A. Jolud, I.B. Nazarova, T.V. Dianova N.K. Nores, A.A. Stankevich, D.V. Yevtyanova, M.V. Tiranova, M.L. Kalujskiy va T.N. Yudinalarning asarlarida ham raqamli iqtisodiyotning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq qilingan⁴.

³ Дон Тапскотт "Цифровая экономика: "Обещания и опасность в эпоху сетевого интеллекта"; 1994 г. Lane Neal. Вайпан А., Егорова М. А. "Проблемы гармонизации экономических отношений и права в цифровой экономике" Монография-М.: Юстицинформ, 2020. 280 с. Ken neth C.Laudon, Jane P.Laudon, "Management Information System: managing the digital firm". Eleventh Edition / Global Edition. Washington; Pearson 2010 с-653 p; Toshio Obi. "The Innovative CIO and e-Participation in e-Government Initiatives".Amsterdam. IOS Press, 2010. 245; Besanko D.M.Schanley and S.Schaefer. Economics of Strategy.5 e. 2009; Викторова Н.Г., Шухов Ф.Г. Цифровая экономика: развитие облачных технологий в России и за рубежом // НИИ экономики связи и информатики «Интерэкомс» "Век качества" Электронное научное издание 2019, №2,-с. 81-90.

⁴ Жолуд А.А. Деловой сектор, потребители и полезность электронной коммерции // Экономические науки. – 2011. – № 76. – С. 33-36. Назарова И.Б. Дианова Т.В. Электронная торговля: преимущества, проблемы и «эффект скопления» при снижении транзакционных издержек // Вестник МГИМО Университета. – 2012. –

Shuningdek, AKT ni joriy etishni takomillashtirish masalalari mahalliy olimlardan: akademik S.S.G‘ulomov, B.A.Begalov, R.H.Alimov, O.M.Abdullayev, A.T.Kenjabayev, T.S.Qo‘chqarov, T.Iminov, L.Shibarshova, A.Qodirov, Sh.A.Tursunov, A.Aripov, I.Ye.Jukovskaya, Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev, K.B.Urazov, M.T.Alimova, U.A.Shirinov, A.P.Xazratov va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda axborotlashtirish jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilgan⁵.

Shunga qaramasdan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda AKT dan samarali foydalanish masalalari hozirgacha ilmiy asarlarda kompleks ravishda o‘z aksini topmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda masalaning u yoki bu tomoni qisman yoritilgan, lekin ularda raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarini rivojlantirish ishi asos bo‘lgan, aloqa korxonalarida AKT dan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda xorij tajribalari to‘liq ochib berilmagan. Bugungi transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyotni yagona tizim sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda AKT ni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida AKT infratuzilmalaridan foydalanishga qaratilgan mustaqil tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

№ 4 – С. 173-178. Норец Н.К., Станкевич А.А., Цифровая экономика: состояние и перспективы развития Инновационные кластеры в цифровой экономике: теория и практика: труды научно-практической конференции, 2017; Т.Н.Юдина, Осмысление цифровой экономики, «Экономика и бизнес», 2016;-с 57. Евтянова Д.В., Тиранова М.В. Цифровая экономика как механизм эффективной экологической и экономической политики // Интернет-журнал “НАУКОВЕДЕНИЕ” Том 9, №6 2017.

⁵ Gulyamov S.S., Abdullaev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar//Toshkent-2019.-T.:Fan 2010. Alimov R.X. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanishi va rivojlanishi.Toshkent 2001. Kenjabayev A.T. “Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari” Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.Toshkent-2005 y. Qo‘chqarov T.S Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent-2019 y. Jukovskaya I.Y Raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini statistika faoliyatida foydalanish metodologiyasini takomillashtirish. K.B.Urazov, M.Sh.Mardonov. Innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlarini statistik hisobotlarda ochib berish masalalari. “DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR”. 2021. 155-160 b. Алимова М.Т., Рахмонов Ш.Ш. ИННОВАЦИОННЫЙ МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА. Вопросы науки и образования. 2018. 72-75 с. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi.- Toshkent 2020., Shirinov U.A. “Aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi sub’ektlarda segmentar hisob va auditni takomillashtiri” «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit» ixtisosligi bo‘yich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand -2021, Xazratov A.P. Aloqa xizmatlarini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand – 2023.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

milliy aloqa xizmatlari bozori va uning mohiyatini tadqiq etish;

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy aloqa xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

O'zbekistonda raqamli aloqa xizmatlarini samarali rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini asoslash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorini rivojlanish holatini tahlil qilish;

milliy aloqa xizmatlari bozorida "O'zbektelekom" AK ning tutgan o'rni va faoliyatini tahlil qilish;

milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida "O'zbektelekom" AKning innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;

"O'zbektelekom" AK faoliyatida milliy aloqa xizmatlaridan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modelini yaratish;

mamlakatimizda milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish istiqbollari belgilab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida aloqa xizmatlari bozorida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar, xususan "O'zbektelekom" AK faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik va ekonometrik modellash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning innovatsion rivojlanish darajasini (I_{rd}) "boshlang'ich daraja" ($0 < (I_{rd}) \leq 0,39$), "rivojlanayotgan daraja" ($0,39 < (I_{rd}) \leq 0,69$), "innovatsion daraja" ($0,69 < (I_{rd}) \leq 0,89$) va "raqamli lider darajasi" ($0,89 < (I_{rd}) < 1,0$) shkalalarida baholash tizimi taklif etilgan;

"O'zbektelekom" AK innovatsion faollik darajasining 2025-2030-yillarda rivojlantirish strategiyasi xizmatlar sifatini standartlar asosida to'liq ta'minlash, mobil ilovalar orqali to'liq xizmat ko'rsatish, boshqaruv samaradorligini oshirishda tarmoq boshqaruvining yagona markazini qurish, innovatsion xizmatlarning yagona paketini ishlab chiqish kabilarga ko'ra takomillashatirilgan;

axborot hamda aloqa xizmatlari hajmi va ta'sir etuvchi omillar bog'liqligiga ko'ra ekonometrik model asosida axborot va aloqa xizmatlari hajmining 2025-2028-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

milliy aloqa xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari ijobiy baholangan holda ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra "O'zbektelekom" AK tizimida yangi turdagi raqamli xizmatlar bozorini ustuvor rivojlantirish, milliy ishlab chiqaruvchilar, texnologik startaplar bilan integrasiyani va davlat-xususiy sheriklikni chuqurlashtirish, aloqa xizmatlari ekologik barqarorligini izchil ta'minlab borish kabilar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlanish tendensiyalari baholanishi natijasida aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda innovatsion samaradorlikni aniqlovchi IS5 modeli taklif etilgan;

"O'zbektelekom" AK faoliyatida milliy aloqa xizmatlaridan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modeli taklif etilgan;

milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanilganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil va talqin etilganligi, tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar milliy aloqa xizmatlari bozorida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimidagi korxonalarda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini samarali rivojlantirish bo'yicha nazariy-metodologik asoslar va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tavsiyalar aloqa korxonalarida AKTni modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va xizmatlar sifati va samaradorligini yanada oshirishda hamda manfaatdor tashkilotlar faoliyatida hamda oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari, keys-stadilar, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manbaa sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning innovatsion rivojlanish darajasini (Ird) «boshlang'ich daraja» ($0 < (Ird) \leq 0,39$), «rivojlanayotgan daraja» ($0,39 < (Ird) \leq 0,69$), «innovatsion daraja» ($0,69 < (Ird) \leq 0,89$) va «raqamli lider darajasi» ($0,89 < (Ird) < 1,0$) shkalalarida baholash taklifidan «"O'zbektelekom" AK "O'zbektelekom-2023" strategiyasi»ni ishlab chiqishda hamda AK innovatsion faollik darajasini baholashda foydalanilgan ("O'zbektelekom" AKning 2025-yil 15-iyuldagi 02-07-21/1023-

sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif innovatsion faollik darajasini baholash imkoniyati va aniqlik darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

“O‘zbektelekom” AK innovatsion faollik darajasining 2025-2030 yillarda rivojlantirish strategiyasi xizmatlar sifatini standartlar asosida to‘liq ta‘minlash, mobil ilovalar orqali to‘liq xizmat ko‘rsatish, boshqaruv samaradorligini oshirishda tarmoq boshqaruvining yagona markazini qurish, innovatsion xizmatlarning yagona paketini ishlab chiqish kabilarga ko‘ra takomillshatirish taklifidan “O‘zbektelekom” AK “O‘zbektelekom-2023” strategiyasi»ni ishlab chiqishda hamda AK faoliyatiga tadbqiq etilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2025-yil 15-iyuldagi 02-07-21/1023-sonli ma'lumotnomasi). Taklif “O‘zbektelekom” AKning respublikada ma'lumotlar uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik oshirilishini, masofadan o'qitish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini o'rtacha 25-28 foizga oshirish imkoniyatini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

axborot hamda aloqa xizmatlari hajmi va ta'sir etuvchi omillar bog'liqlikligiga ko'ra ekonometrik model asosida axborot va aloqa xizmatlari hajmining 2025-2028 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklifdan ““O‘zbektelekom” AK “O‘zbektelekom-2023” strategiyasi”ni ishlab chiqishda hamda AK faoliyatiga tadbqiq etilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2025-yil 15-iyuldagi 02-07-21/1023-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif “O‘zbektelekom” AK aloqa va axborotlashtirish xizmatlari xajmini oshirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlashga muayyan darajada xizmat qilgan;

milliy aloqa xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari ijobiy baholangan holda ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra “O‘zbektelekom” AK tizimida yangi turdagi raqamli xizmatlar bozorini ustuvor rivojlantirish, milliy ishlab chiqaruvchilar, texnologik startaplar bilan integrasiyani va davlat-xususiy sheriklikni chuqurlashtirish, aloqa xizmatlari ekologik barqarorligini izchil ta'minlab borish kabilar yuzasidan taklif ““O‘zbektelekom” AK “O‘zbektelekom-2023” strategiyasi”ni ishlab chiqishda hamda AK innovatsion faollik darajasini baholashda foydalanilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2025-yil 15-iyuldagi 02-07-21/1023-sonli ma'lumotnomasi). Taklif aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar tahlil jarayonlari xarajatlarini 5% ga qisqarish va boshqaruv faoliyati samaradorligini 7% ga oshishi imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi e'tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 1 tasi impakt faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 138 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti aniq belgilangan, ilmiy tadqiqot mavzusini respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keng bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar tizimida milliy aloqa xizmatlarining o'рни, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy aloqa xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari, milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirish jarayonlari va ularni takomillashtirishning nazariy jihatdan o'rganish asosida aloqa xizmatlari sohasini innovatsion rivojlanish bosqichlari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan.

Hozirgi davrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat va jamiyat boshqaruvi faoliyatining barcha sohalariga keng joriy etish, samarali foydalanish, olis aholi yashash joylarida yashayotgan fuqarolarning axborot olishga doir istaklarini ro'yobga chiqarishga mo'ljallangan optik aloqa tarmoqlari va ularning faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Eng dolzarb masalalardan bo'lgan telekommunikatsiya tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, ishonchliligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish va aloqa tarmog'i faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada jahonning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan AQSh, Kanada, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda telekommunikatsiya infratuzilmasi, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda keng polosali interfaol xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqot ishida ADSL –texnologiyasi alohida o'rganilgan bo'lib, unda olis aholi yashash joylaridagi kam sonli abonentlarga keng polosali xizmatlar asosan: ADSL (**ADSL** – Asymmetric Digital Subscriber Line, HDSL – High data rate Digital Subscriber Line, VDSL – Very high data rate Digital Subscriber Line) texnologiyalari yordamida mis simli liniyalar orqali taqdim etiladi. Quydagi 1-rasmda ADSL texnologiyasi asosida qurilgan keng polosali abonent kirish tarmog'i keltirilgan.

Umumiy qilib aytganda, mamlakatimizdagi olis aholi yashash joylarining keng polosali xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past. Bu esa raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlarining ta'minlanishini kechiktirishga sabab bo'lmoqda.



1-rasm. Keng polosali abonent kirish tarmoqlarini qurish texnologiyasi (ADSL –texnologiyasi asosida)⁶

Dissertatsiya ishida aloqa xizmatlari sohasini innovatsion rivojlanishi har bir zamonga mos axborot revolyutsiyalari rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda rivojlanish bosqichlari ishlab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval.

Aloqa xizmatlari sohasini innovatsion rivojlanish bosqichlari⁷


Bosqich	Innovatsion rivojlanish bosqichi	Davr	Qo‘shimcha ma’lumot va misollar
Birinchi	“Qo‘lyozma” axborot texnologiyasi	XIX asrning II yarmi	Pochta orqali xat, risola, gazeta, elchilar orqali axborot yetkazish; aloqa juda sust bo‘lgan.
Ikkinchi	“Mexanik” texnologiyalar	XIX asr oxiri	Telegraf, bosma matbuot, dastlabki telefon qurilmalari; signal va tovush mexanik vositalar orqali uzatilgan.
Uchinchi	“Elektrik” texnologiyalar	XX asr 40–60 yillari	Telefon, radio, dastlabki televizorlar; elektr toki orqali axborot uzatish imkoniyati.
To‘rtinchi	“Elektron” texnologiyalar	1970-yillar boshi	Tranzistorlar, mikroprotsessorlar, televizorlar, ilk kompyuterlar, elektron pochta.
Beshinchi	“Kompyuter” texnologiyalari	1980-yillar o‘rtalari	Shaxsiy kompyuterlar (PC), MS-DOS, Windows, dastlabki lokal tarmoqlar; axborotni raqamli shaklda saqlash va uzatish.
Oltinchi	“Tarmoqli” texnologiyalar	2000-yillar	Internet, elektron pochta, mobil aloqa (2G–3G), Wi-Fi, SMS, veb-saytlar keng tarqaldi.
Yettinchi	“Bulutli” texnologiyalar	2006-yillar	Cloud computing (Google Drive, AWS, Azure), masofaviy serverlar, onlayn xizmatlar (Zoom, Gmail).
Sakkizinchi	“Aqlli” texnologiyalar (AI, 5G, IoT, Big Data)	2020-yildan hozirgacha	Aqlli qurilmalar (smartfon, aqlli soat), sun‘iy intellekt (ChatGPT, Siri), 5G tarmoqlari, IoT, avtomatlashtirilgan aloqa tizimlari.
To‘qqizinchi	“Kognitiv va kvant” texnologiyalar	2030-2040 yillar (prognoz)	Kvant internet, kognitiv AI (idrokli tizimlar), hissiy aloqa, miya-kompyuter interfeyslari, kvant shifrlash orqali eng yuqori darajadagi xavfsizlik.

⁶ Nazariy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan chizilgan.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Aloqa xizmatlari (telekommunikatsiya xizmatlari) – bu odamlar o‘rtasida axborot almashishni ta’minlaydigan texnik va texnologik vositalar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuasidir. Ular telefon, internet, mobil aloqa, televideniye, radio, pochta va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin.

Aloqa xizmatlarining boshqa tur xizmatlardan farqli tomonlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Aloqa xizmatlarining boshqa tur xizmatlardan farqli tomonlari⁸.

Aloqa xizmatlarini rivojlantirish mamlakatning barcha tarmoq va sohalarini rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasini xalqaro tajribalari va innovatsion rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda belgilab beruvchi 4 bosqichli shkala ishlab chiqish maqsadga muvofiq (2-jadval).

Aloqa xizmatlarining rivojlanish darajasi orqali ushbu xizmatning imkoniyatlari va kamchiliklarini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Qolaversa, 4 bosqichli shkalani ishlab chiqishda har bir bosqichning xususiyatlarini inobatga olgan holda baholash maqsadga muvofiq deb izohlash mumkin.

Aloqa xizmatlari korxonalarining innovatsion samaradorligi oshirishda o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash, innovatsion rivojlanishni tanlash va tanlangan rivojlanish darajasi baholash uchun zamin yaratadi. Tadqiqotda boshlang‘ich, rivojlanayotgan, innovatsion va raqamli lider bosqichlari tahlil qilinib, samaradorligi aniqlanib, baholash shkalalari ishlab chiqilgan.

Ish faoliyati natijasini baholashning shkala usuli korxonalar tomonidan o‘z xodimlarining ish faoliyatini baholash, shuningdek, aloqa xizmatlari korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi uchun keng qo‘llaniladigan metod hisoblanadi. Shu bois aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarining innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash grafik reyting shkalasi orqali amalga oshirish zarur.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Aloqa xizmatlari korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi
(4 bosqichli shkala)⁹

№	Mezonlar	O'rtacha ballar	Boshlang'ich bosqich (an'anaviy) (B_a)	Rivojlanayotgan bosqich (raqamli integratsiya boshlanishi) (R_{rib})	Innovatsion bosqich (raqamli xizmatlar kengaygan) (I_{rxk})	Raqamli lider bosqichi (to'liq barqaror raqamlashtirilgan) (Rl_{tbr})
1.	Aloqa xizmatlari narxi (A_{xn})	2/0.2	1/0.1	1/0.1	1/0.1	2/0.2
2.	Aloqa xizmatlari-ning tezligi (A_{xt})	1/0.1	1/0.1	2/0.2	2/0.2	1/0.1
3.	Aloqaning qamrov darajasi (A_{qd})	1/0.1	1/0.1	1/0.1	2/0.1	1/0.1
4.	Aloqa xizmatlari-ning innovatsion rivojlanish darajasi (A_{xird})	2/0.2	1/0.1	2/0.2	1/0.1	1/0.1
5.	Korxonalarining reklamasi (K_r)	1/0.1	2/0.2	1/0.1	1/0.1	1/0.1
6.	Xodimlarning malakasi (X_m)	1/0.1	1/0.1	1/0.1	1/0.1	2/0.2
7.	Boshqaruvning moslashuvchanligi (B_m)	1/0.1	2/0.2	1/0.1	1/0.1	1/0.1
8.	Aloqa sifati (A_s)	1/0.1	1/0.1	1/0.1	1/0.1	1/0.1
	Jami($A_{xn} + A_{xt} + A_{qd} + A_{xird} + K_r + X_m + B_m + A_s$)	10 ball yoki 1.0 koef.	10 ball yoki 1.0 koef.	10 ball yoki 1.0 koef.	10 ball yoki 1.0 koef.	10 ball yoki 1.0 koef.

2-jadval ma'lumoti asosida shuni aytish mumkinki, tadqiqot davomida grafik reyting shkalasi asosida ishlab chiqilgan shkala orqali korxona faoliyatida innovatsion rivojlanishning bosqichlarining 8 ta mezon bo'yicha samaradorligini aniqlash imkoniyatiga erishiladi. Bunda aloqa xizmatlarining innovatsion rivojlantirish darajasi, ya'ni, boshlang'ich, rivojlanayotgan, innovatsion va raqamli lider bosqichlarilarning ish faoliyati samaradorligi (I_{rd}) – $0 < (I_{rd}) \leq 0,39$ oralig'ida “boshlang'ich daraja”, $0,39 < (I_{rd}) \leq 0,69$ oralig'ida “rivojlanayotgan daraja”, $0,69 < (I_{rd}) \leq 0,89$ oralig'ida “innovatsion daraja” va $0,89 < (I_{rd}) < 1,0$ oralig'ida bo'lsa “raqamli lider darajasi” darajada faoliyat olib borayotgan deb baholanadi.


Bu esa korxona rahbariyatida innovatsion rivojlanish bo'limining faoliyatida kelajakda qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Dissertatsiya ishining **“Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning amaliy jihatlarini”** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorini rivojlanish holati, milliy aloqa xizmatlari bozorida “O'zbektelekom” AK ning tutgan o'rni va faoliyati

⁹ Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

tahlili va muammolari shuningdek milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasining barpo etilishi raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biri. Respublikamizda ma’lumotlar uzatish tarmog‘ining o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyat va tuman markazlari darajasida 1,5 barobarga oshdi. Telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha 50 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalari qurilib, ularning umumiy uzunligi 118 ming kilometr yetkazildi va buning natijasida aholi maskanlarining 67 foiziga mazkur tarmoq kirib bordi. Optik tarmoqni kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuqori sur‘atlarda davom ettirilmoqda. Aholiga yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini ko‘rsatish qurilmalarining umumiy sig‘imi 3,6 mln.ga yetkazildi. Mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish maqsadida, mobil internet tezligi 1,5 barobar oshirildi va 14 150 ta qo‘shimcha tayanch stansiyalari o‘rnatilib, ularning umumiy soni 45 890 taga yetkazildi. Operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 42,9 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 30,0 ming so‘mni tashkil etmoqda. Bugungi kunga kelib 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xo‘jaliklariga yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan. Hozirgi kunda mobil aloqa abonentlari soni 36.2 mln. kishini tashkil qiladi. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, mobil aloqa bilan ta‘minlangan abonentlar soni 36 251,7 ming birlikni shu jumladan, aholida 30 095,3 ming birlikni tashkil etdi. Bu degani har 100 kishi hisobiga aholining mobil aloqa bilan ta‘minlanganligi esa 81 birlikni tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. “O‘zbektelekom” AK faoliyati bo‘yicha tahliliy xulosalar (2016–2025)¹⁰

¹⁰ Nazariy ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Olib borilgan tadqiqotimizga ko'ra, Mobil aloqa abonentlari soni 2016-yilda 19,6 mln bo'lgan. 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 36,2 mln.ga yetgan. O'sish sur'ati 1,8 barobarni tashkil etgan. Bu mobil xizmatlarga bo'lgan talabning o'sganligini ko'rsatadi. Internet foydalanuvchilari soni 2016-yilda 10,2 mln ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 36,8 mln.ga oshib, o'sish sura'ti 3,6 barobarga yetgan. Bu Respublikamizda internet xizmatlari rivojlanishi va narxlar optimallashtiruvining bevosita natijasidir. Optik tolali aloqa liniyalari uzunligi 2016-yilda 17,9 ming km bo'lgan tarmoq uzunligi 2025-yilga kelib 175,2 ming km. ga yetgan. Bu 10 barobardan ortiq o'sish ko'rsatkichi telekommunikatsiya infratuzilmasining jadal rivojlanganligini anglatadi. Raqamli televideniya bilan qamrab olish darajasi 2016-yilda 520 ming birlikga yetgan bo'lsa, 2023-yilda 810 ming birlik darajasiga yetgan. 2024–2025-yillarga kelib bu ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan. Bu bozorning to'yinganligi yoki texnologik o'zgarishlar (OTT, IPTV xizmatlari kengayishi) bilan izohlanadi. Provayderlar uchun 1 Mbit/s internet narxi 2016-yilda 157,6 \$ bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 2,2 \$ gacha pasaygan. Bu 70 barobar arzonlashganligini ko'rsatadi. Internet xizmatlarining ommalashuvi aholiga keng qulaylik yaratishga sabab bo'lgan.

Aloqa xizmatlarini rivojlantirish masalalari doimo dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda xizmatlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni yangi bosqichga olib chiqish masalalari doimo birlamchi jarayonlardan hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida "O'zbektelekom" AK ning SNW tahlili 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

"O'zbektelekom" AK uchun SNW tahlili¹¹

Kategoriya	Tafsilotlar (SWOTdan moslashtirilgan)
S – Kuchli tomonlar	- Telekommunikatsiya bozorida deyarli monopol mavqega ega - keng infratuzilma (barcha viloyatlarda filiallar mavjud) - Xizmat turlarining keng doirasi (mobil, internet, telefon, korporativ xizmatlar) - Mamlakat ichki bozorida yetakchi o'rin egallagan
N –Neytral tomonlar	- Davlat buyurtmalarining mavjudligi (barqaror daromad, ammo samaradorligi tahlil talab qiladi); - Innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyati mavjud, lekin sekin sur'atda rivojlanmoqda; - Marketing tadqiqotlarini o'tkazish imkoniyati bor, lekin amalda yetarli foydalanilmayapti
W – Zaif tomonlar	-Uskunalarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi; -Innovatsion xizmatlar joriy etish darajasi past; -Xodimlarning yangiliklarga salbiy munosabati; -Kadrlar almashinuvi yuqori (qo'nimsizlik)

¹¹ Nazariy ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

“O‘zbektelekom” AK SNW-tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki, kompaniyaning kuchli tomonlaridan biri uning deyarli monopol sifatida faoliyat yuritayotgani bo‘lsa, kuchsiz tomonlariga uskunalarning ma‘nan eskirganini kiritishimiz mumkin.

4-jadval.

SNW tahlili asosida “O‘zbektelekom” AK ga strategik tavsiyalar¹²

Kategoriya	Strategik yo‘nalishlar
S – Kuchli tomonlar	- Mavjud infratuzilma bazasiga tayanib yangi xizmatlar (masalan, 5G, IoT, bulutli xizmatlar)ni joriy qilish - “Yagona darcha” modelini yanada takomillashtirish va avtomatlashtirish
N – Neytral tomonlar	- Innovatsiya va investitsiya yo‘nalishlarida xorijiy tajriba asosida loyihalarni tezlashtirish - Marketing tadqiqotlari asosida xizmatlar segmentatsiyasini kuchaytirish
W – Zaif tomonlar	- Eskirgan uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash uchun strategik rejalar ishlab chiqish - Ichki HR siyosatini qayta ko‘rib chiqish va xodimlarga innovatsiyaga yo‘naltirilgan motivatsiya tizimini joriy qilish - Marketing bo‘limining salohiyatini kuchaytirish va zamonaviy PR yondashuvlarini qo‘llash

Yuqoridagi 4-jadvalda SNW tahlili asosida “O‘zbektelekom” AK ga strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, shu bilan birga kompaniya xodimlarining innovatsiyalarga nisbatan xavfsirab qabul qilishlari, yetarlicha ko‘nikmalarga ega emasliklari kompaniyani taxdidga soluvchi masalalaridan biri hisoblanadi. Biroq, kompaniya rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyatlarga ega, xususan davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi kompaniya rivojlanishiga katta turtki bo‘luvchi omillardan hisoblanadi.

Aloqa korxonalarining aloqa xizmatlaridan tushgan tushum tarkibi tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi (5-jadval): Pochta xizmatlari sohasida 2015-yilda jami tushumdagi ulushi 4,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,2 foizgacha kamaygan. Bu holatni boshqa zamonaviy aloqa xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Telegraf xizmatlaridan tushum ko‘rsatkichi 2015-yilda 0,02 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilda ham ushbu ko‘rsatkich saqlanib qolgan. Maxsus aloqa xizmatlari bo‘yicha tushum ulushi 2015-yildagi 0,1 foizdan 2024-yilda 0,2 foizgacha oshgan.

Shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi bo‘yicha tushum 2015-yilda 11,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 10,2 foizgacha kamaygan. Bu esa ushbu turdagi xizmatlardan foydalanish faolligining pasayganini ko‘rsatadi. Shahar va qishloq telefon aloqasi xizmatlarining jami tushumdagi ulushi 2015-yilda 1,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 0,6 foizgacha kamaygan. Bunga mobil aloqa xizmatlarining keng tarqalishi va ommalashuvi asosiy sabab bo‘lgan. Radiochastotalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, nazorat qilish va himoya qilish xizmatlari bo‘yicha tushum ulushi 2015-yildagi 1,1 foizdan 2024-yilda 2,2 foizgacha oshgan. Bunday o‘sishga mobil aloqa va televideniye

¹² Nazariy ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi

xizmatlarining keskin rivojlanishi, shuningdek, yangi kompaniyalar faoliyatining boshlanganligi sabab bo'lgan (5-jadval).

5-jadval.

Aloqa korxonalarining aloqa xizmatlaridan tushgan tushum tarkibining ulushi, (foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar										
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yilda 2015-yilga nisbatan, %da
	Jami aloqa xizmatlari	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100%
1.	Pochta	4,2	3,5	3,3	2,4	2,9	2,8	3,1	3,1	3,2	3,2	0,76
2.	Telegraf	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,01	0,03	0,02	0,02	0,02	1,0
3.	Maxsus aloqa	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	2,0
4.	Shaharlararo va xalqaro telefon	11,1	9,7	12,7	16,1	14,2	13,7	12,4	11,4	10,5	10,2	0,94
5.	Shahar va qishloq joylardagi telefon	1,8	1,7	1,4	1,2	1,4	1,3	1,0	0,8	0,7	0,6	0,38
6.	Radio chastotalarni ro'yxatga olish, nazorat va himoya qilish	1,1	1,0	1,0	1,3	1,4	1,8	2,1	2,1	2,2	2,2	2,0
7.	Mobil aloqa xizmati	58,3	58,8	54,2	49,0	43,0	39,2	38,2	37,3	26,8	25,4	0,43
8.	"Internet" tarmog'i	15,8	17,0	21,4	22,9	26,0	30,2	34,1	35,9	47,9	50,3	3,18
9.	Ma'lumot uzatish tarmog'i	5,5	6,1	3,9	4,8	8,5	7,9	6,3	6,3	6,2	6,2	1,13
10.	Televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish	1,4	1,5	1,5	1,6	1,6	1,8	1,8	1,7	1,8	1,8	1,29
11.	Radio dasturlarini uzatish va qabul qilish	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	1,0


Mobil aloqa xizmatlaridan tushgan tushum hajmi 2015-yilda 58,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 25,4 foizgacha kamaygan. Ushbu pasayishning asosiy sababi sifatida aholi orasida muloqot uslublarining o'zgarishi, xususan, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilishga o'tish, shuningdek, internet-telefoniya (VoIP) xizmatlarining keng tarqalganligini ko'rsatish mumkin. Internet xizmatlarining ulushi esa 2015-yilda 15,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 50,3 foizgacha oshgan. Ya'ni, 34,5 foizlik sezilarli o'sish kuzatilgan. Bu esa respublikamizda aloqa infratuzilmasiga qaratilgan e'tibor va investitsiyalar natijasi hisoblanadi. Ma'lumot uzatish tarmog'i xizmatlari ulushi 2015-yilda 5,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 6,2 foizgacha oshgan. Bu ham sohadagi texnologik taraqqiyot va davlat tomonidan ko'rsatilgan ko'mak natijasi sifatida baholanishi mumkin. Televideniye dasturlarini uzatish va qabul qilish xizmatlarining ulushi 2015-yilda 1,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 1,8 foizgacha oshgan. Radio dasturlarini uzatish

va qabul qilish xizmatlarining ulushi esa 2015 va 2023-yillarda bir xil – 0,1 foiz darajasida qolgan.

Dissertatsiya ishining **“Milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida “O‘zbektelekom” AK ning innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, “O‘zbektelekom” AK faoliyatida milliy aloqa xizmatlaridan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modelini yaratish hamda milliy aloqa xizmatlari bozorini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish istiqbollari keltirilgan.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya sohasi keng rivojlanib, korxonalar outsorsing orqali xizmatlar taqdim etib, bozorni daromad keltiruvchi maqsadli segmentlarini aniqlab, o‘z strategiyasini global aloqa tarmoqlari orqali raqamli innovatsion xizmatlar turini kengaytirishga qaratmoqda. “O‘zbektelekom” AK milliy telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi operator sifatida raqamli iqtisodiyot sharoitida faqatgina bugungi kunda taqdim etayotgan xizmatlari bilan cheklanib qolsa, bozordagi raqobat muhitida yetakchilik o‘rnini yo‘qotib qo‘yish ehtimoli kuchayib boraveradi.

Bu masalalarni “O‘zbektelekom” AK innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda amalga oshirish dissertatsiya ishining jozibadorligini oshirib boradi. Innovatsion rivojlanish strategiyasi asosiy uch yo‘nalishni belgilash orqali korxonaning innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari belgilanadi va buning natijasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning rivojlanishini belgilaydi (4-rasm).



4-rasm. “O‘zbektelekom” AK faoliyatini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari¹³


“O‘zbektelekom” AK faoliyatini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari innovatsion jarayonlarni joriy etish uning istiqboldagi samaradorlikka erishish yo‘nalishlarini belgilab beradi:

Innovatsion jarayonlarning boshqarish strategiyasini umumiy tarzda mamlakatning iqtisodiy mavqeyini mustahkamlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, iste‘molchilarning talablarini qondirish va yuqori texnologik

¹³ Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

ishlab chiqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadlarga erishishning boshqaruv rejasi deb aytishimiz mumkin. Xususan, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida aniq strategiyani tanlash - innovatsion rivojlanishning mumkin bo'lgan turli yo'llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olishdir.

